



**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ustav kapitalini tashkil
qilish va yuritish masalalari**

Najimova Nigora Ibragimovna

Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti

"Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya
hisobi va audit" kafedrası doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy kapital, hamda Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda ustav kapitalini hisobi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, kapital, korxona, mulk, mulkchilik shakllari, daromad, xo'jalik

Abstract: This article talks about private capital and the calculation of authorized capital in limited liability companies.

Key words: Economy, capital, enterprise, property, forms of ownership, income, economy

Аннотация: В данной статье говорится о частном капитале и расчете уставного капитала в обществах с ограниченной ответственностью.

Ключевые слова: Экономика, капитал, предприятие, собственность, формы собственности, доход, экономика.



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mavjud moddiy, moliyaviy va boshqa resurslardan oqilona va samarali foydalanish lozim. Raqobatga bardosh berish – bu rivojlanishning muhim omillaridan sanaladi. Ayniqsa, mulkchilik shakli turlicha bo'lgan korxonalarda xususiy kapital miqdorini ko'paytirish hamda undan samarali foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning salohiyatini ularning xususiy kapitali ko'rsatkichi xarakterlaydi. Xususiy kapitalga yetarli darajada ega bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini uzluksiz rivojlantira olmaydi va bozorda vujudga keladigan raqobatga bardosh berish qobiliyati sust bo'ladi. Shuning uchun ham xususiy kapitalga ega bo'lish, uni doimiy tarzda ko'paytirib borish bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi ham rivojlanishiga kafillik beruvchi muhim element bo'lib hisoblanadi.

Xususiy kapitalni tasniflashning yuqori bo'g'inida uning moddiylik belgisi turadi. Ushbu belgisiga ko'ra, korxona va tashkilotlarning barcha xususiy kapitalini ikki guruhga, ya'ni moddiy xususiy kapital va nomoddiy xususiy kapitalga ajratish mumkin. Moddiy xususiy kapital deganda, korxona va tashkilotlar moddiy aktivlari hisoblanadi. Korxonalarining barcha moddiy xususiy kapitali barcha aktivlarning bir qismi sifatida buxgalteriya balansining «AKTIV» qismida joylashadi. Nomoddiy xususiy kapital o'z ifodasini nomoddiy aktivlarda topadi. Bu ham buxgalteriya balansining aktiv qismida joylashadi. Xizmat muddati belgisi bo'yicha xususiy kapital korxona va tashkilotlarda qancha muddatda iqtisodiy samara berishi, ya'ni foyda keltirish bilan tasniflanadi. Ushbu belgi bo'yicha barcha xususiy kapitalni uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiy kapitalga ajratish mumkin. Xizmat muddati belgisi sifatida buxgalteriya hisobida, odatda, bir yillik muddat qabul qilingan. Ushbu muddatga ko'ra bir yildan ko'p xizmat qiladigan xususiy kapital uzoq muddatli, 1 yilgacha amal qiladigan xususiy kapital esa qisqa muddatli xususiy kapital hisoblanadi. Uzoq muddatli xususiy kapitalga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar (patent, litsenziya, turli huquqlar, yangi g'oyalar va boshqalar) va bir yildan kam bo'lmagan muddatga qo'yilgan qo'yilmalar kiradi. Qisqa



muddatli xususiy kapitalni adabiyotlarda (shu jumladan, 2004 yil 1 yanvardan qo'llanilib kelinayotgan buxgalteriya balansida) «aylanma aktivlar» deb ham ataydilar. Ularga ishlab chiqarish zaxiralari, tovar moddiy boyliklar, pul mablag'lari va boshqalar kiradi.

Korxonalarda xususiy kapital hisobini yuritish uchun avvalo O'zbekiston Respublikasida mavjud korxona turlari haqida ma'lumotlarni bilish muhim.

Korxonalarining quyidagi turlari mavjud:

1. Aksiyanerlik jamiyati
2. Masulyati cheklangan jamiyat
3. Xususiy korxona
4. Oilaviy korxona
5. Fermer xo'jaligi

Bulardan jamiyatimizda eng ko'p uchraydiganlaridan biri ma'sulyati cheklangan jamiyatlardir.

Ma'sulyati cheklangan jamiyat(MCHJ)larning eng asosiy xususiyatlari

Tasishilar soni 50 tagacha
Ustav fondi belgilanmagan
Tasishilarning javobgarligi cheklangan yani, korxona qarzi uchun tasishilar javob bermaydi

Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risidagi qonun O'zbekiston Respublikasining Qonuni, (06.12.2001 yildagi 310-II-son) ga ko'ra ma'sulyati cheklangan jamiyat ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalarini quyidagicha tasniflanadi.



¹Jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchisi ulushining eng yuqori miqdori, shuningdek jamiyat ishtirokchilari ulushlarining nisbatini o'zgartirish imkoniyati cheklab qo'yilishi mumkin. Bunday cheklashlar jamiyatning ayrim ishtirokchilariga nisbatan belgilanishi mumkin emas. Ko'rsatib o'tilgan qoidalar jamiyat ta'sis etilayotganda uning ustavida nazarda tutilishi, shuningdek jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyat barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qaroriga binoan jamiyatning ustaviga kiritilishi, o'zgartirilishi va undan chiqarib tashlanishi mumkin.

Jamiyat faqat kredit tashkiloti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z hissasining kamida o'ttiz foizini kiritishi shart. Jamiyatning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) o'z hissasini to'liq kiritishi kerak.

Jamiyatning ishtirokchisi tomonidan hissaning to'liq kiritilganligi jamiyat ishtirokchisiga beriladigan guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.

Jamiyatning ishtirokchilari va jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi.

Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida jamiyatga foydalanish uchun berilgan mol-mulkning muddat o'tgunga qadar ushbu mol-mulkdan foydalanish huquqi tugatilgan taqdirda, jamiyatning mol-mulkni bergan ishtirokchisi jamiyatning talabiga binoan unga

¹ Lexuz.Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.12.2001 yildagi 310-II-son



shunday mol-mulkdan shunga o'xshash sharoitlarda qolgan muddat mobaynida foydalanganlik uchun to'lanadigan haqiga teng pul to'loni to'lashi shart. Pul to'loni jamiyat tomonidan uni berish talabnomasi taqdim etilganidan e'tiboran agar jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qarori bilan tovon to'lashning boshqacha tartibi belgilangan bo'lmasa, bir oy ichida bir yo'la to'lanishi kerak. Bunday qaror jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida mol-mulkdan foydalanish huquqini bergan va bu huquq muddatidan ilgari tugatilgan jamiyat ishtirokchisining ovozini hisobga olmagan holda jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Ta'sis hujjatlarida jamiyat ishtirokchisi tomonidan ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida jamiyatga foydalanish uchun berilgan mol-mulkdan foydalanish huquqining muddatidan ilgari tugatilganligi uchun jamiyat ishtirokchisi tomonidan tovon to'lashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Jamiyatdan chiqarilgan yoki undan chiqib ketgan ishtirokchi tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa tariqasida foydalanish uchun berilgan mol-mulk, agar ta'sis hujjatida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, u qancha muddatga berilgan bo'lsa, shuncha muddat davomida jamiyat foydalanishida qolaveradi.

MCHJlarda ustav kapitalini shakllantirishni quyidagi misol orqali tahlil qilamiz. Mebel ishlab chiqaruvchi "Shoh trade star" MCHJ 3 ta ta'sischi orqali tashkil qilingan

Korxona mulk egalari	Ustav fondiga kiritilgan aktivlar	Aktivlar qiymati	Foydadan ulush %
1-ta'sischi	pul	30 mln	30%
2-ta'sischi	asosiy vosita	60mln	60%
3-ta'sischi	tovar	10mln	10%
jami		100 mln	100%

Mebel ishlab chiqaruvchi "Shoh trade star" MCHJ 3 ta ta'sischi orqali tashkil qilingan. Jadvaldagi malumotlarga ko'ra hisobot yili yakunida olingan foyda, (dvident) ta'sischilarning



qo'shgan ulishi bo'yicha (ta'sischi soniga bo'linmaydi) taqsimlanadi. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi jamiyatning ustavida yoki ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Bunda dividendlarni to'lash muddati jamiyat ishtirokchilari o'rtasida foydani taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan oshmasligi kerak. Boshqaruv huquqi ham ta'sischi ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda ham ovoz beruvchilar soni emas ovozlarning foizi muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Tojiboeva. Iqtisodiyot nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma./Akad. M.Sharifxo'jaevning ilmiy tahriri ostida. - T.: «O'qituvchi», 2022.
2. O.H. Hamroev. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. - T.: TDIU, 2014.
3. Karaliyev T. Bank faoliyati tahlili. T.M.Karaliyev va boshqalar. O'quv qo'llanma. Moliya instituti. T.: "Niso poligraf", 2016, 136 bet.
4. Karimov N. Tijorat banklarda ichki auditni tashkil qilish masalalari // Bozor, pul va kredit. 2010. 10-son.
5. Qurbonov.R.B Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish masalalari risklarini baholashni takomillashtirish. "Moliya va bank tizimini modernizatsiyalash masalalari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. T, 2015 463 b
6. Lexuz.Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.12.2001 yildagi 310-II-son